ISSN 2181-7138

# МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

*Илимий-методикалық журнал*

***2024***

**1-сан**

*Өзбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жанындағы Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының 25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен 2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды. №01-044-санлы гуўалық берилген.*

Нөкис

**Отабоева З.Ғ.** Talabalar o'rtasida hamkorlik madaniyatini rivojlantirishning klaster metodini ta'siri va afzalliklari ... 204
**Химматалиев Д.О., Киличова М.С., Хамидова С.** Умумтаълим мактаблари ўқувчиларига инглиз тили фанини ўқитишга дифференциал ёндашув ... 208
**Коккозова Ж.Ж.** Талабаларни методик фаолиятга тайёрлашда таянч компетенцияларини ривожлантириш технологиялари ... 220
**Ҳамраева Г.Р.** Олий таълим муассасалари талабаларини дарс машғулотлари жараёнида рақамли компетенцияларини баҳолаш усуллари ... 227
**Asqaralieva M.A.** Ta'lim tizimida xalqaro baholash dasturlarining zarurati ... 236
**Ubaydullaev I.A.** Mulkdorlar sinfini tugatilishining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari ... 243
**Axmedova M.E., Abdullayev M.Q.** Chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayorgarlikni tashkil etish va uni o'qitishda mustaqil ish vazifalarni rivojlantirish metodikasi ... 252
**Alijonova M.R.** Bo'lajak mutaxassislarda integrativ yondashuv asosida kreativlikni rivojlantirish ... 261
**Kamolova F.** Biologiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalar ... 265
**Qurbonova F.M.** Talabalrida koperatsion yondashuv asosida pedagogik kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish usullari ... 270
**Soliyev O.S.** Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot va ijtimoiy texnologiyalarning tutgan o'rni ... 274
**Jo'rayev M.M.** Pedagogika universiteti ta'lim muhitining kasbiy faoliyatga yo'naltirish funktsiyasini amalga oshirish muammolari ... 279
**Qurbonova F.M.** Bo'lajak pedagoglarni kasbiy rivojlanishida koperatsion (hamkorlik) yondashuvning o'rni va ahamiyati ... 284
**Nurmatova Sh.Sh.** Xorijiy davlatlarning darsga ijobiy munosabatlar shakllantirish strategiyalari ... 289
**Bektursinova L.X.** O'qituvchining imidjini shakllantirish ... 294
**Mamadaliev K.R.** Pedagogika ta'lim yo'nalishlarini yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratishda o'quv jarayoni loyihalarini tuzish ... 300
**Мирзорахимов О.К.** Инклюзивное образование – это обучение детей с ровесниками ... 310
**Буранова Н.Ш.** Опытно-экспериментальная работа по развитию исследовательской деятельности учащихся 6-8 классов на уроке внеклассного чтения ... 314
**Xatamova G.K.** Educational reforms and prospects in Uzbekistan ... 321

## МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲӘМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

**Davlatova M.A., To'rayeva G.T.** O'rta Osiyo va Turkiya fani tarixida Ali Qushchining riyoziyot va handasa ilmlariga qo'shgan hissasi ... 327
**Abdullayeva G.Sh.** O'zbekiston respublikasi sharoitida migratsiya jarayonlarining tahlili ... 332

## ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

**Mirsanov U.M. Ravshanova G.A.** Oliy ta'lim muassaslarida dasturlash tillarini o'qitish samradorligini oshirishda xorijiy davlatlarning tajribalaridan foydalanish ... 337
**Qulmurodov I.E.** Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarning geometrik tasavvurlarini shakllantirishda uch o'lchovli o'quv vositalardan foydalanish muammolari ... 344
**Abduqodirova P.T.** Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishga oid turli yondashuvlar ... 349
**Abdiraxmanov A.** Matematika o'qitish metodikasining predmeti, taraqqiyoti, maqsadi va mazmuni ... 355
**Муйдинова М.А., Маматова Г.Ж.** $SiO_2$ қатлам қўллаш орқали монокристалл кремний асосли фотоэлектрик қурилманинг самарадорлигини ошириш имкониятини экспериментал ўрганиш ... 358
**Azimov T.D., Axmedova Sh.A.** Ortoganal proyektsiyalash usulida nuqtaning fazoviy va epyur chizmalarini dasturida ishlab chiqish to'g'risida ... 362

# XORIJIY DAVLATLARNING DARSGA IJOBIY MUNOSABATLAR SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI

***Nurmatova Sh.Sh.***
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*
*"Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasi o'qituvchisi*

**Tayanch so'zlar:** modernizatsiya, texnologiya, innovatsiya, me'zon, strategiya, integratsiya, differensial ta'lim, interfaol, individual.

**Ключевые слова:** модернизация, технология, инновация, критерий, стратегия, интеграция, дифференцированное образование, интерактив, индивидуальность.

**Key words:** modernization, technology, innovation, criterion, strategy, integration, differentiated education, interactive, individuality.

Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish ta'lim, fan, texnika va texnologiyaning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etilishini ko'zda tutadi. Ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlar tashkilotchilari dars intizomiga turlicha munosabatda bo'ladigan bolalarning o'quv faoliyatini tashkil etish va boshqarishning turli xil zamonaviy usullarini bilishi, ulardan oqilona foydalana olishi, o'quvchilarga ta'sir ko'rsatayotgan turli g'oyalar yo'nalishini aniqlay olishi, o'quvchilar bilan individual ishlash qonuniyatlariga asoslanishi, darsga ijobiy munosabatdagi bolalar bilan ishlash bo'yicha ilg'or tajribalarni, fan-texnika yutuqlarini muntazam o'rganib borishi hamda ularni o'z faoliyatiga tatbiq etishi, o'quvchilar faolligini ta'minlash va ularning hamkorlikka asoslangan o'quv faoliyatini muvofiqlashtirish jarayonlarida innovasion faoliyatni tashkil eta olishi zarur hisoblanadi.

Demak, darsga ijobiy munosabatdagi bolalar shaxsining jismoniy, aqliy, axloqiy va boshqa sifatlarining rivojlanishida, ya'ni ularga ta'lim berish va ularni tarbiyalashda jamiyat tomonidan tashkil etilgan ta'lim muassasalari hamda ta'lim-tarbiya jarayoni asosiy sub'yektlari hisoblangan o'qituvchilar faoliyati, ya'ni ta'lim muassasasida xukm surayotgan ta'lim-tarbiyaviy muhit muhim rol o'ynaydi.

Jahonda insoniyat paydo bo‘lganidan boshlab, odamlar u yoki bu usulda va tartibda farzandlar ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanganlar. Qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, ta’lim-tarbiya usullari mutassil davom etavergan. Ular davrlar o‘tishi, hayot va turmushning murakkablashishi natijasida tobora chuqurroq hamda keng ma’no kasb etgan. Ta’lim-tarbiya berish deganda, kimnidir maxsus bir xonaga o‘tkazib, faqat pand-nasihat berishni emas, balki o‘yin davomida, uy yumushlari jarayonida, ta’lim va ilm o‘rgatish vaqtida, hayot va turmush saboqlarini qiyosiy yo‘sinda tushuntirishni, qolaversa, shaxsiy o‘rnak ko‘rsatish odatini tushunmoq va bilmoq lozim . Shu omillar bir-biri bilan qo‘shib olib borilishi kerak.

Professor S.T.Turg‘unovning fikricha, inson asosan, ikki yo‘l bilan ta’lim olishi va tarbiyalanishi mumkin: birovning bevosita ta’siri, ya’ni o‘rgatishi, shuningdek, donolar fikrlari, o‘gitlari va asarlarini o‘qish orqali; inson o‘zining fikrlashi, odamlar xatti-harakatidan, qilgan va qilayotgan ishlaridan xulosalar chiqarib olishi; eng qudratlisi – tafakkuri vositasida ta’lim olishi va tarbiyalanishi mumkin.

Abdulla Avloniy “Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” degan edi. Bu fikr hozirda ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va uni boshqarishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Tarbiya – shaxsiy sifatlar shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan jarayon bo‘lib, bir avlodning ijtimoiy tajribasini keyingi avlodlar tomonidan o‘zlashtirishlarini va ularning ijtimoiy hayotga qo‘shilishlarini ta’minlab beruvchi zaruriy faoliyatdir. Tarbiya - inson tarbiyalanganligining me’zoni sifatida shaxsiy sifatlarni shakllantirish bilan bog‘liq holda tarixan shakllanib kelgan pedagogik tushuncha. Uning yordamida insonning shaxsiy sifatlarini rivojlanishiga tashqi muhitni ta’sirini fan va amaliyot isbotlab beradi. Inson butun umri davomida hayotda kimnidir tajribasiga tayanadi hamda unga asosan o‘zining shaxsiy sifatlarini shakllantirib, rivojlantirib boradi. U faqat o‘tmish me’rosxo‘ri sifatida ijtimoiy hayotga qo‘shilib boradi va shaxsiy sifatlarga ega bo‘ladi.

Xorijiy tajribalarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini dars jarayoniga jalb qilish uchun faol o‘qitish usullaridan foydalanishga urg‘u beriladi. Bu yondashuvlar loyihaga asoslangan ta’lim, hamkorlikda o‘rganish va so‘rovga asoslangan ta’limni o‘z ichiga oladi, ular boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ishtirokini, tanqidiy fikrlashni va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rag‘batlantiradi. O‘quvchilarni o‘quv jarayoniga faol jalb etish orqali darsga ijobiy munosabat tarbiyalanadi.

Quyida xorij davlatlarida o‘quvchilarni darslarga ijobiy munosabatlarini shakllantirish strategiyalari keltirib o‘tilgan:

**JANUBIY KOREYA**




**Janubiy Koreya boshlang‘ich maktab o‘quvchilarida darslarga ijobiy munosabatni rivojlantirish strategiyalari**

**AMERIKA QO‘SHMA SHTATLARI**




**Amerika ta’lim tajribasi boshlang‘ich maktab o‘quvchilarida darslarga ijobiy munosabatni shakllantirish tizimi**

**YAPONIYA**

**Yaponiya boshlang‘ich sinf o‘quvchilari kichik guruhlarda vazifalarni bajarish yoki muammolarni hal qilish jarayonida darsga ijobiy munosabatni yaratish**



**ROSSIYA**




**Rossiyada boshlang‘ich maktab o‘quvchilarida darslarga ijobiy munosabatni shakllantirishdagi yondashuvlar**

**FINLANDIYA**




**Finlandiya ta’lim tizimi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida darslarga ijobiy munosabatni shakllantirish strategiyalari**

Xulosa qiladigan bo‘lsak, rivojlangan davlatlar ta’lim va o‘qitish usullaridan foydalanish bugun barcha davlatlar uchun dastur bo‘lmoqda. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida darsga ijobiy munosabatni shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha xorijiy tajribalarni tahliliy o‘rganish, samarali strategiya va yondashuvlar qimmatli fikrlarni ochib beradi.

**Adabiyotlar:**

1. Fuzailov S., Xudoyberganova M.., Yo‘ldosheva SH.. Ona tili. – Toshkent.: O‘qituvchi, 2019.
2. Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
3. Abduraimova M. Ona tili ta’limi – yangi asrda. – Toshkent, 2007.
4. Inoyatov U.Xodjayev B. Umumta’limiy kompetensiyalarni loyihalashtirishning kontseptual asoslari // Xalq ta’limi ilmiy-metodik jurnali, 2016. № 2, 8-b.
5. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003.

**РЕЗЮМЕ**

Ushbu maqolada xorijiy tajribalarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini dars jarayoniga jalb qilish uchun faol o‘qitish usullaridan foydalanishga urg‘u berilgan.

**РЕЗЮМЕ**

В данной статье делается акцент на использовании активных методов обучения для вовлечения учащихся начальных классов в зарубежный опыт.

**SUMMARY**

This article focuses on the use of active learning methods to engage primary school students in overseas experiences.